

O'QUVCHILARNI QOBILIYATI VA ISTE'DODINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani

53-sonli maktab psixologi

Abduvohidov Abbos Narzullayevich

Anotatsiya: Qobiliyat — shaxsning muayyan harakat turini ishlab chiqarishga bo'lgan layoqati va turmush jarayonida shakllangan individual ishlab yig'indisi sifatida ta'riflanadi . U bilim, ko'nikma va orttirish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, kuchning o'zi bilim va ko' qobiliyati emas, balki ularni tez va samarali o'zlashtirishni yaratuvchi ichki layoqatdir . Kishilar ishlab chiqarishda tezlik , samaradorlik , original sifatli turlicha'lib , bu tahrirlangan mahsulot sifati bo'yicha . Shaxsning harakat mehnat, o'yin, o'qish va ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi, uning individual farqlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, bilim, ko'nikma, malaka, layoqat, faoliyat, ijodkorlik, samaradorlik, individual xususiyatlar.

Qobiliyat deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma, malaka orttirish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Lekin bilim, ko'nikma va malaka orttirish qobiliyat emas, balki u ularni o'zlashtirishdagi layoqati, mahoratida namoyon bo'ladi, ular asosida bilim, ko'nikma, malakalar osonlik bilan egallab olinadi. Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida – mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshqalarniki esa kam unum bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, original usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz.

Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo'jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo'ladi. Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir – har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo'ladi, lekin, shu bilan bir qatorda, ko'pchilik faoliyatning bir necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo'ladi. Biror sohada qobiliyati sezilarliroq bo'lib ko'rinadigan ayrim

kishilarni qobiliyatli kishi (umuman) qobiliyatli matematik, qobiliyatli musiqachi, konstruktor, rassom va hokazo deydilar. Odamning qobiliyatlarida tug‘ma xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi. Shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo‘ladigan tug‘ma xususiyatlari iste‘dod deyiladi. Har bir kishida tug‘ma layoqat nishonalari, ya‘ni miyaning oliy asab faoliyatini analizatorlarining o‘ziga xos xususiyatlari bor bo‘ladi, binobarin, kelgusida biror qobiliyatni rivojlantirishga bo‘lgan muayyan moyillik ana shunga bog‘liqdir. Demak, layoqat-qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining, sezgi a‘zolari va harakatning morfologik hamda funksional xususiyatidir va u qobiliyatning fiziologik asosidir. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui kishining iste‘dodidir. Iste‘dod inson qobiliyati taraqqiyotining eng yuksak darajasini ta‘minlovchi tug‘ma tabiiy imkoniyatlar yig‘indisidir. Iste‘dodning rivojlanishi shaxsning yashash sharoitiga, ijtimoiy ta‘lim-tarbiyaga, uni faoliyatdagi faolligiga bog‘liqdir. Har bir odamning qobiliyat va iste‘dodi taraqqiyot mahsulidir. Insonning qobiliyati uning tug‘ma layoqati asosida, muhitga bog‘liq ravishda olayotgan ta‘lim-tarbiyasiga qarab, shuningdek, kishining o‘z ustida ishlashi bilan bog‘liq holda o‘sib, kamol topib boradi. Inson o‘z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. Shuning uchun ham unga xos bo‘lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o‘tadi va ular instinktlar, tug‘ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. Qobiliyat ta‘lim jarayonida, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, bilimlarning ijodiy qo‘llanishida, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayonida inson faoliyatida kamol topadi. Masalan, musiqachi bo‘lish uchun tabiiy qobiliyat va qulay sharoit bo‘lishining o‘zi kifoya qilmaydi, balki o‘qish, musiqa nazariyasini o‘rganish, texnikani va maxsus fanlarni bilish kerak bo‘ladi. Yaxshi uchuvchi, muhandis, umuman qanday bo‘lmasin har bir sohada mutaxassis bo‘lish uchun tegishli ma‘lumot va tarbiya olish kerak.

Ma‘lumki, barcha yuksak iste‘dodli kishilar ko‘p va tirishib o‘qiganlar. Iste‘dod ayni ta‘lim-tarbiya jarayonida, kishining tarkib topayotgan qobiliyatlarida ravshanroq ko‘rina boshlaydi. Chunonchi, kishining, masalan, musiqa, adabiyot, texnika, matematika va boshqa shu kabilarga bo‘lgan iste‘dodi ta‘lim-tarbiya jarayonida oshkor bo‘ladi. Qulay sharoit, o‘qitish va tarbiya odamdagi layoqatning barvaqt uyg‘onishiga imkon beradi. Masalan, Rimskiy-Korsakov onasi kuylagan kuylarni ikki yoshdanoq, otasi pianinoda chalgan kuylarni to‘rt yoshida takrorlar, xirgoyi qilar edi va otasidan eshitgan kichik musiqa asarlarini tez kunda fortepianoda o‘zi chala boshlagan. Motsart uch yoshdan boshlab klavesinani (pianinoga o‘xshash musiqa asbobini) chala boshlagan, eshitgan musiqa asarlarini hayron qolarli darajada darrov esida qoldirgan. To‘rt yoshida o‘zi ham musiqa asarlari yarata boshlagan. Gaydida to‘rt yoshidayoq musiqaga bo‘lgan qobiliyat ko‘rina boshlagan. Prokofev sakkiz yoshida kompozitor

bo‘lib tanila boshlagan. Rassomlik sohasida Rafaelning ijodiy qobiliyati sakkiz yoshida, Mikelanjeloda o‘n uch yoshida, I. Ye. Repin bilan V. A. Serovda to‘rt yoshida, V. I. Surikovda olti yoshida ko‘rina boshlagan. Aleksandr Ivanov o‘n bir yoshidayoq tasviriy san‘at Akademiyasiga kirgan. Igor Grabar o‘zi haqida: «Rassomlikka necha yoshda havas qo‘yganligimni eslay olmayman, ammo rasm solmagan vaqtimni xotirlay olmayman», deydi. Poeziya sohasida Pushkin va Lermontovlarning ijodiy qobiliyatlari juda erta ko‘rina boshlagan. Pushkin to‘qqiz yoshida, Lermontov o‘n yoshida, A. Navoiy 5 yoshida ijod qila boshlagan. Ularning 7–13 yoshlaridayoq asarlari bosilib chiqq boshlagan. Bayron bilan Shiller o‘n olti yoshda yoza boshlagan. Bizning maktablarimizdagi ta‘lim-tarbiya ishlari o‘quvchilarga faqat bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning barcha qobiliyatlarini o‘stirishni nazarda tutgan holda olib boriladi. Kishilar o‘zidagi turli faoliyatlarga bo‘lgan tug‘ma layoqatlarini jamoada, o‘z ustida tinmay ishlash jarayonida ro‘yobga chiqaradilar. Maktablardagi sinf hamda jamoa, guruhlar, ilmiy to‘garaklar, fan olimpiadalariga ishtirok etish, ilmiy anjumanlarda ishtirok etish tug‘ma layoqatlarning qulay imkoniyatlaridir. Shuningdek, o‘quv va mehnat faoliyatida odamning layoqatlari uyg‘onadi va qobiliyatlari o‘sadi, xalq talantlari shular jarayonida oshkor bo‘ladi. Har bir shaxsning o‘zi faol harakat qilgandagina ijtimoiy muhit, o‘qish va tarbiya kishining layoqatini uyg‘otmog‘i va iste‘dod hamda qobiliyatlarini o‘stirmog‘i mumkin. Kishining qobiliyatlari uning faoliyatini belgilabgina qolmay, balki kishining qobiliyatlari mana shu faoliyatda o‘sadi va tarkib topadi. Qobiliyat va iste‘dodi mehnatda namoyon bo‘ladi, shu bilan birga kishi qobiliyatining o‘zi ham faqat sabot bilan mehnat qilish, tirishib tegishli bilim va malaka hosil qilish orqali kamol topadi.

Foydalanildan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya. T.: O‘qituvchi, 1992. – 512 s.
2. Nemov R.S. Psixologiya Kn. M.: Prosveshenie – 1994. – 576 s.
3. G‘oziev E. Psixologiya. T.: O‘qituvchi, 1994 – 300 b.
4. Klimov E.A. Osnovi psixologii. Ucheb. M.: YuNITI, 1997. – 295 s.
5. Godfrua J. Chto takoe psixologiya. T. M.: Mir. 1992 – 496 s.
6. Karimova V.M. “Ijtimoiy psixologiya asoslari” T. 2004y.
7. G‘oziev E. “Shaxs psixologiyasi” T. 2004y.
8. Z. Nishonova, G. Alimova “O‘quvchilar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi ” Toshkent 2002